

KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA

QADRIYATLARNING O'RNI

Sultonaliyeva Sevinchbonu Bobir qizi

“Maktabgacha ta’lim

psixologiyasi va pedagogikasi” yo’nalishining 4 kurs talabalari

Har bir xalqning o’zi uchun e’zozli, qimmatli bo’lgan ma’naviy boyliklari bo’ladi. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o’tib kelgan, hozirgi kunda ham o’zining ahamiyati va qadrini yo’qotmagan, shu xalqning iftixor manbaiga aylangan durdonalardir. Hech bir xalq o’zligini anglamasdan, milliy madaniyati, milliy qadriyatlarini asrab-avaylab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan qaray olmaydi. Mustaqil O’zbekistonning kuch-qudrati xalqimizning umuminsoniy qadriyatlariga sodiqligidadir. Istiqlolning birinchi kunidan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida “Qadriyatlar”, “Milliy tiklanish”, “Milliy ong”, “Milliy g’urur” kabi atamalar tez-tez ishlatalidigan bo’lib qoldi. Bu bejiz emas, albatta. “Qadriyat” tushunchasi-juda keng tushuncha bo’lib, uning bir qismima’naviy qadriyatlardir. Milliy-ma’naviy qadriyatlar – “milliylik”, “Ma’naviyat” va “qadriyat” tushunchalari kesishgan nuqtada jamlangan ijtimoiy hodisalarni o’z ichiga oladi. “Milliy ma’naviy qadriyatlar” tushunchasiga quyidagicha ta’rif berish mumkin: muayyan millat vakillari uchun zarur va ahamiyatli, aziz va ardoqli bo’lgan, manfaati va maqsadlariga xizmat qiladigan ma’naviy boyliklar, amallar va tamoyillar, g’oyalar va me’yorlar milliy ma’naviy qadriyatlardir. Millat va elatlarning o’ziga xos tarixiy merosi, san’ati va adabiyoti bilan bir qatorda ularning urf-odat va marosimlari, madaniy munosabat va axloqiy fazilatlari ham ma’naviy qadriyatlar tizimiga kiradi. Bular xalqning o’ziga xosligini saqlab qolishda, yosh avlodni tarbiyalashda, shaxsning ijtimoiylashuvida muhim rol o’ynaydi. Milliy qadriyatlar xalqning kundalik hayoti va turmush tarzida o’ziga xos mezon vazifasini o’taydi. Ushbu qadriyatlar vositasida turli hodisa va holatlarga, yangi paydo bo’layotgan faoliyat turlari va

rasm-rusmlarga baho beriladi. Yosh avlodning hayotiy mo'ljallari, "zamon qahramoni" haqidagi tasavvurlari ham ma`naviy qadriyatlardan kelib chiqib shakllanadi. Milliy g`oyani obyektiv anglashda qadriyatlar va ma`naviyat olamini bilish va uni amaliy o`rganish muhim ahamiyatga ega. Har bir qadriyatning mohiyati va ahamiyati tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma`naviy taraqqiyotga ta`sir etish imkoniyatlari asosida belgilanadi. Qadriyat turlari: 1. Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog`liq bo`lgan qadriyatlar. 2. An`analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo`ladigan axloqiy qadriyatlar. 3. Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko`nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste`dodlarida namoyon bo`ladigan qadriyatlar. 4. Odamlar o`rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik, hayrixohlik, hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo`ladigan qadriyatlar. 5. Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog`lik bo`lgan qadriyatlar. Qadriyatlarni xilmayxil shakl va turlarga ajratib o`rganish mumkin: 1. Umuminsoniy qadriyatlar. 2. Mintaqaviy qadriyatlar. 3. Milliy qadriyatlar. 4. Diniy qadriyatlar. Qadriyat — voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma`naviy ahamiyatini ko`rsatish uchun qo'llanadigan tushuncha. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo`lgan barcha narsalar, erkinlik, tinchlik,adolat, ijtimoiy tenglik, ma'rifat, haqiqat, yaxshilik, go'zallik, moddiy va ma`naviy boyliklar, an'ana, urf-odat va boshqalar qadriyat hisoblanadi. Muayyan bir elat, millat, xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma`naviyati, urf-odat va an'analar, o'tmishi va kelajagi bilan bog`liq qadriyatlar milliy qadriyatlardir. Inson, uning faoliyati, turmush tarzi, e'tiqodi, umr ma'nosi, odobi, go'zalligi bilan bog`liq qadriyatlar shaxsiy qadriyatlardir.

Qadriyatlar komil insonni tarbiyalashda muhim omil bo`lib xizmat qiladi. Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish, har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo`lgan milliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo`lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylab, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuzidagi har bir millat faqat

uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlari bilan alohida ajralib turadi, tabiiyki, har qaysi xalqning beba ho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror-bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi. Agar ular keyingi avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, demakki, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi. Millat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog'liq qadriyatlар milliy qadriyatlар deyiladi. Milliy qadriyatlар millatning tarixi, yashash tarzi, ma'naviyati hamda madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlari ham uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlаримиз asosini tashkil etadi.

Yurtimizda bunyod etilgan Samarqand, Qarshi, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Andijon, Marg'ilon, Termiz va Qo'qon singari o'nlab shaharlarning yoshi ming yillar bilan o'lchanishi ham bejiz emas. Demoqchimizki, xalqimiz o'zi tug'ilib o'sgan yer-zaminga qattiq bog'langan, uni e'zozlashni bolaligidan o'rganib, his qilib o'sadigan millat sanaladi. Xalqimizning o'z yurtiga cheksiz sadoqati, ehtiromi bilan bog'liq milliy an'ana va qadriyatlari uning boy tarixi bilan izohlanadi. Xuddi shuningdek, xalqimizning kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko'rsatish, mehmono'stlik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish, hayo, ibo va mehr-oqibat, ahli ayolini - oilasini asrash, maishiy turmushda poklikni yuksak qadrlash singari an'ana va qadriyatlari ham hayotning uzoq sinovlaridan o'tgan o'lmas ma'naviy merosimiz sanaladi. Mustaqillikning dastlabki kunlaridan e'tiboran xalqimizning xotirasini tiklash, qadimgi urf-odat va qadriyatlарини

e'zozlash, muqaddas qadamjolarni asl holiga qaytarish yuzasidan chinakam tarixiy ahamiyatga molik ishlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu keng ko'lamli jarayon birgina o'zbek millatining tili, dini va qadriyatlarini tiklash, rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki mamlakatimizda istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning qadriyatlariga yuksak hurmat ko'rsatish bilan uzviy tarzda olib borilmoqda. Bu esa O'zbekistonni o'zining muqaddas Vatani deb barcha fuqarolarimiz orasidagi o'zaro hurmat, birodarlik, bag'rikenglik fazilatlarining namoyon bo'lishida, Yurtboshimizning "Shu aziz Vatan barchamizniki" degan ezgu g'oyasi hayotga izchil tatbiq qilinishi muhim ro'l o'yamoqda.

Milliy qadriyatlar – mamlakatdagi millat va elatlar uchun qadrli bo'lgan va fuqarolar tomonidan e'zozlanadigan, milliy xususiyat va fazilatlarni ifodalovchi hodisalardir. Har bir xalqning o'zi uchun e'zozli, qiymatli bo'lgan ma'naviy boyliklari bo'ladi. Masalan, Navro'z bayrami, dinimiz va diniy bayramlarimiz, milliy urf-odatlarimiz, tilimiz bizning eng muhim milliy qadriyatlarimiz sanaladi. Demak, qadriyat deyilganda, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elatlarning manfaatlariga va maqsadlariga xizmat qiladigan, shu tufayli ular tomonidan qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlari, hodisalarini tushunish lozim. Bular asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelgan, hozirgi kunda ham u o'zining ahamiyati va qadrini yo'qotmagan, shu xalqning iftixoriga aylangan durdonalardir.

Maktabgacha ta'lim yoshidan bolalarga milliy qadriyatlar bo'lgan - millatning yashash tarzi, milliy ong, til, ma'naviyat hamda madaniyatini yoshlik davrlardan singdirish lozim. Milliy urf-odatlar va an'analar qadimda ajdodlarimizning turli-tuman bayramlar, marosimlar o'tkazganliklarini yaxshi bilamiz. Albatta, bu bayramlar mavsum va marosimlar bilan bog 'liq bo'lgan. Ma'lumki, bahor uyg'onish fasli, tabiatning yangilanishi, gulchechaklarning dunyo yuzini qayta ko'rishi davri. Qadimda bolalar avvalo boychechak, so'ng binafsha, qoqigul, tolbargak ochilib, yaproq yozishini bayram qilishgan. Hayitlar qadimiy diniy bayram bo'lib, ularning tarkibiga kirgan ko'pgina marosimlar islomdan oldin ham xalq taomilida bo'lgan. Navro'z

qadimiy milliy bayrami (“Navro‘z bayrami”) fors tilidan tarjima qilindanda “yangi kun” ma’nosini anglatadi. Navro‘z bayrami 21-mart kuni nishonlanadi va yangi yilning boshlanishi hisoblanadi. Ushbu kun kecha bilan kunduzning tenglashgan paytidir. Azalda Sharqda yangi yil hisobi Navro‘zdan boshlangan. Ushbu bayram barcha o‘simpliklar va daraxtlar gullaganda va bahor tusiga kirgan vaqtda, bahor kirib kelayotganda nishonlanadi. Ushbu bayramning kirib kelishi bilan ko‘pgina o‘zbek oilalar turli milliy taomlarni tayyorlaydilar: sumalak, xalim, ko‘k somsa, osh va boshqalar. Mazkur taomlar odamzod organizmiga foydali bo‘lgan ko‘p vitaminlarga boydir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘zbek xalqining qadimiy urf-odatlari va ana’nalari kuchga kirdi, jumladan, Navro‘z bayramini nishonlash o‘ziga xos tusga ega bo‘ldi. Bu bayram barcha xalqlarning do‘stlik va birlik ramziga ega bo‘lgan umumxalq bayramidir. Hozirgi kunda Navro‘z bayrami Alisher Navoiy maydonida keng nishonlanmoqda.

Xotira va qadrlash tushunchasi chuqur ma’noga egadir. Ushbu kunda fashizmga qarshi kurashishda qatnashgan, o‘z Vatanini himoya qilishda joni fido qilgan, shuningdek To‘maris, Shiroq, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Nadjmiddin Kubro, Namoz botir kabi qahramonlar va asrlar davomida xalq orzu qilgan erkinlik uchun kurashgan Qodiriy, Behbudiy, Munavvar qari, Cho‘lon, Avloniy, Fitrat, Usmon Nosir kabi buyuk zotlarning ruxini shod etib eslash ham farz ham qarzdir.

O‘zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayrami - Mustaqillik kunidir. Ushbu bayram 1-sentabr kuni keng miqiyosda va rang barang shaklda nishonlanadi. Ushbu milliy bayram O‘zbek xalqining barcha orzularini ifoda etadigan bayramdir.

Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy - iqtisodiy, madaniy -ma‘naviy taraqqiyotining mahsulidir. Shuning uchun ham qadriyatlarda zamonning ruhi, imkoniyatlari, o’sha zamonda yashagan odamlarning orzu - umidlari, istaklari va ehtiyojlari o‘z ifodasini topadi. Zamonlar o’tishi bilan qadriyatlarning mazmuni va ma‘nosi o‘zgarib boradi. Xuddi shuning uchun ham qadriyatlarning tarbiyaviy

ahamiyatga baho berganda konkret tarixiy shart - sharoitlarni doimo nazarda tutmoq zarur. Qadriyatlarni jamiyat, millat hayotidagi o'rni, ijtimoiy xarakteriga qarab milliy va umuminsoniy, sinfiy yoki diniy, shuningdek kishilarning yoshi, professional xususiyatlariga xos qadriyatlarga bo'lish mumkin. Insonning qadr - qimmati, sha'ni, or - nomusi, milliy g'ururi - milliy qadriyatlar bilan bevosita bog'liq qadriyat. Milliy qadriyatlar, har bir millatning o'ziga xos xususiyatlari, xossalari, belgilari, alomatlarini ifodalovchi falsafiy tushuncha bo'lib, o'sha millat bosib o'tgan ijtimoiy taraqqiyot jarayonida shakllangan milliy madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini, ulushini ifodalaydi. Xuddi shu milliy o'ziga xoslik, o'ziga moslik, millat madaniyatida, adabiyotida, san'atida, tilida, dinida, tarixiy xotirasida, yashash ishslash va fikrlash atrzida, urfodatlarida, rasm - rusumlarida, bayramu - sayillarida o'z ifodasini topadi. Milliy qadriyatlar milliy ma'naviy madaniyat ifodasi bo'lib, har bir millatning insoniylik xazinasiga qo'shgan munosib hissasining hosilasidir. Milliy qadriyatlar, shubhasiz, millatning ravnaqi yoki inqirozi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Boshqacha aytganimizda, milliy qadriyatlar millatning o'tmishi va buguni bilan bog'liq qadriyat. Shuning uchun ham, "milliy qadriyatlar millat rivojlanishi bilan rivojlanadi, inqirozga uchrashi bilan qadrsizlanadi. Shuning uchun ham, millat - o'zining qadriyatlarini vujudga keltirib, ularning yangi - yangi qirralarini va jihatlarini sayqallashtirib, taraqqiyot jarayonida takomillashtirib turishi ma'nosida o'z qadriyatlarining haqiqiy egasi, makon va zamondagi ilgarilanma harakatdan iborat o'zgarishlar jarayonida ularni o'tmishtdan kelajakka yetkazib boradigan eng asosiy obyektdir". Milliy qadriyatlarning negizini urf - odatlar, rasm-rusumlar, bayramu-sayillar tashkil etadi. O'zbek milliy qadriyatlari mazmunida insonparvarlik g'oyalari yotadi. Uzoq tarix davomida o'zbeklarning o'zaro munosabatlarida, kundalik turmush tarzida o'zaro hamkorlik va hamdardlik, vafodorlik va o'zaro hurmat, biri - biriga suyanish va yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik va ota - onaga hurmat, mehr - oqibat va sadoqat har tomonlama e'zozlanib kelinadi. Milliy qadriyatlar o'sha millatga mansub har bir kishi tomonidan yaratilgan, insoniylik, odamiylikka xos fazilatlar, xislatlar,

xosiyatlarni milliy - madaniy meros xazinasiga qo'shgan hissasini ifodalovchi buyuk ko'rsatkichdir. Qadriyatlar insonga doimiy ravishda o'sishi, rivojlanishi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bilimlarni beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. O'zbekiston. 2017.
2. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch". Toshkent. Ma'naviyat. 2008.
3. M.Quramov "Oila–milliy tarbiya o'chog'i" T.2001.
4. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.
4. Чориева, Д. А. (2019). Педагогическая диагностика в условиях дошкольного образования. Актуальные проблемы современного образования: опыт и инновации, 86.
5. Чориева, Д. А. (2021). МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ РАБОТЫ С АГРЕССИВНЫМИ ДЕТЬМИ. In Человек в современном мире: пространство и возможности для личностного роста (pp. 152-161).
6. Чориева, Д. А. (2022). ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ДИАГНОСТИКА ФАОЛИЯТИ БИЛАН ШУҒУЛАНУВЧИ ШАХСГА ҚЎЙИЛАДИГАН ТАЛАБЛАР: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.9.09.014> Чориева Дурдона Анваровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Мактабгача таълим факультети Мактабгача таълим психологияси ва педагогикаси кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), в. б. доценти. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (9), 99-102.
7. Chorieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.

8. Anvarovna, C. D. (2024). MANAGEMENT OF INNOVATIVE PROCESSES IN PRESCHOOL EDUCATION. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 58-62.
9. Anvarovna, C. D. (2024). MAKTABGACHA TA'LIMDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA VA KORREKSIYALASHNING O 'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 48-53.
10. Anvarovna, C. D. (2024). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA INNOVATION PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK DIAGNOSTIK SAMARALI METODLARDAN FOYDALANISH. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(6), 54-57.
11. Durdona, C. (2023, December). KREATIVLIK ORQALI BOLALARING QOBILYATLARINI OSHIRISH. In "Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 12, pp. 302-305).
12. Durdona, C. (2023). BOLALARDA KREATIVLIK QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH. TECHNICAL SCIENCE RESEARCH IN UZBEKISTAN, 1(5), 265-270.
13. Choriyeva, D. (2023). OILA VA MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AMALGA OSHIRILADIGAN IJTIMOIY VAZIFALAR. Talqin va tadqiqotlar, 1(32).